

BUXORO XONLIGIDA, XAYRLI KASALLIK NOMINI OLGAN “RISHTA” VA UNGA SABAB BO’LGAN OMILLAR HAQIDA

Bayramova Nodira

BuxDu Arxelogiya va Buxoro tarix kafedrasi,

“Tarixshunoslik va manbashunoslik” yo’nalishi birinchi bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro xonligida “xayrli kasallik” nomi bilan tanilgan “Rishta” kasalligi va uning tarqalish sabablari tahlil qilingan. Muallif tarixiy manbalar va xorijiy sayohatchilar — J.Volff, A.Vamberi kabi mualliflarning asarlariga tayangan holda, bu kasallikning tarixi va Buxoro jamiyatidagi o‘rni haqida fikr yuritadi. Rishta kasalligi, asosan, gigiyenik sharoitlarning yetarli emasligi, xususan, yozda suv havzalarida hosil bo‘ladigan gijjalar orqali tarqalgan. Kasallik belgilari, inson tanasidagi o‘ziga xos harakatlar va davolash usullari haqida ham izohlar berilgan. Tadqiqotdan ko‘rinadiki, bu kasallik suv resurslari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘sha davrdagi ijtimoiy va sog‘liqni saqlash sharoitlarini yoritib beradi.

Аннотация: В данной статье рассматривается болезнь «Ришта», известная в Бухарском ханстве как «благословенная болезнь», а также причины её распространения. Автор, опираясь на исторические источники и труды зарубежных путешественников, таких как Дж. Вольфф и А. Вамбери, анализирует историю болезни и её место в обществе Бухары. Болезнь ришта в основном была связана с недостаточными санитарными условиями, особенно в летний период, когда в водоёмах появлялись паразиты. Также описаны симптомы заболевания, особенности поведения паразита в теле человека и методы лечения. Исследование показывает, что распространение ришты напрямую связано с водными ресурсами и отражает состояние социальной и медицинской среды того

Annotation: This article explores the disease known as "Rishta," referred to as a "blessed illness" in the Bukhara Khanate, and the factors that contributed to its spread. The author analyzes historical sources and the works of foreign travelers such as J. Wolff and A. Vambery to examine the history of the disease and its role in Bukhara society. Rishta was primarily associated with poor hygiene conditions, particularly in the summer, when parasites would develop in water reservoirs. The article also describes the symptoms of the disease, the parasite's behavior within the human body, and treatment methods. The research highlights that the spread of Rishta was directly linked to water resources and reflects the state of social and medical conditions of that era.

Krish. Buxoro- biz bilamizki, O'zbekistonning ilm-marifat va tarixiy madaniy yodgorliklari kop joylashgan makondir. Tarixiy davrlardan ham Buxoro o'ziga xosligi, turmush tarzi bilan boshqa o'lkalardan ajralib turganligi barchamizga ma'lum. Shu kabi masalalarni biz ingliz zabon yozuvchilar va osha davrda olkamizga sayohat qilgan sayyohlarni asarlarida ko'rishimiz mumkin. Shular qatorida Josep Volff, A. Vamberi kabi sayyohlarning asarlari mamlakatimiz tarixi uchun qimmatli manba hisoblanadi. Misol tariqasida J. Volffning „Narratives of a mission to Bokhara“ va A. Vamberi „Travels to Central Asia“ asarlarini keltirishimiz mumkin va shuni takidlash joizki ushbu asarlarda Buxoroning ijtimoiy-madaniy hayoti va turmush tarziga oid tarixiy qiymatga ega bo'lgan ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin.

Ushbu asarlarni tahlil qilarkanmiz, o'sha davrdagi boshqa turdagi kasalliklardan farq qiladigan „Rishta“ deb nomlangan bedavo kasallikni keng tarqalganligi va asosan iste'mol suvidan kelib chiqishi haqida bazi bir fikrlarga duch kelishimiz mumkin. Ushbu kasallikda odamlarning tizzasidan xuddi ipga o'xshash va yo'g'onligi taxminan 1mm dan 3mm gacha bo'ladigan qurt chiqqan hamda bu kasallik tufayli odamlar oqsoqlanib yurishga majbur bo'lgan. [pp.238]. Bu kasalga duchor bo'lganlar bir necha oylab to'shakda yotar, ba'zan oqsab, oyoqsiz bo'lib so'ng tuzalardi. Rishta kasalligini sababini ko'pchilik Buxoro hovuzlaridagi suv deb bilganlar.

Haqiqatdan ham yozda hovuzlar gijjaga to'lardi, ushbu gijjalar qizil rangli xalqasimon va ba'zan uzun uzun kichik qurtlar bo'lib ko'zga tashlanardi. Bazilar o'sha paytlarda suvni dokadan o'tkazib ichardi, lekin baribir kasallikni oldini olishga yordam bermasdi. Tadqiqotlarga ko'ra, kimning mijozi rishtaga moyil bo'lsa va yozda Buxoro hovuzlaridan suv ichgan bo'lsa kelasi yil bahorda rishta chiqarardi. Bu qurt dastlab odam belining yuqori qismida „ko'pincha ko'krak va uning atrofida harakatga keladi. Ammo bu davrda terinining tagida biron narsa borligi sezilmagan, qo'l bilan paypaslaganda bilinmagan. U kishi belidan pastroq tushganida uning qimirlashi tezlashib harakati belgilioq bo'lardi. Lekin rishtaning qorin, kindik atrofida teri ostidan chiqishi kam uchrardi. Agar bu qismida rishta nish urib chiqsa, uni tortib olish juda oson kechgan. Qo'shimcha qilib aytish kerakki, to'piq ustida va uning atrofida rishta chiqsa, kishining avoli og'rlashgan va kuchli istma bilan kurashishga majbur bo'lgan. Rishtaning yana bir qiziq xususiyatlaridan birini aytadigan bo'lsak, rishta kasalligi havo sovuganda tinchlangan va kelasi yil bahorda yana qimirlab harakatga tushgan.

Bu davrda Buxoro xalqini deyarli yarmi rishta bilan kasallanganlar va bu kasallikdan odamlar judayam aziyat chekishgan. Rishta mavsumida Peterburg va Moskvadan ketma-ket bir qancha mikrobshunos olimlar kasallik haqida ilmiy izlanishlar olib borish uchun kelishgan. Ular rishtakash sartaroshlardan yangigina tortib olingan rishtalarni olib o'z laboratoriyalarida tahlil qilib ko'rishgan va bu tadqiqotlarning natijasi aholiga ma'lum qilinmagan. Kishida rishta chiqqanida faqat

malakali sataroshlargina uni tanadan chiqarib olishga muvofiq bo'lishgan .Lekin soddadil odamlardan foydalangan bazi firibgarlar cho'ntaklarini to'ldirardilar,ayniqsa chetdan kelgan savdogar,choyfurushlar o'zlarini tabib qilib ko'rsatib Buxoro aholisini talardilar.Bundan tashqari Buxoroning o'zida istiqomat qiluchi duoxon va tabiblar ham davo izlab borgan odamlarning hech qanday samara bermaydigan usullari va yaraga duo o'qib qo'yishlari bilan aldab pullarini olishardi.

Bu davrda yashab xatto o'zining boshidan o'tkazgan, ya'ni ushbu dardga chalinib aziyat chekkan Sadriddin Ayniy o'zining asarida ham rishtaning davolash usullari va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida bir qator ma'lumotlar berib o'tgan.Sadriddin Ayniy aytadiki,rishtaning suyuqligi qonga aralashsa ispara paydo bo'ladi.Uning qichishishi chidab bo'lmas darajada bo'lgan va dardning birinchi davosi qashimaslikdir.Qichimani pasaytiradigan ikkinchi davo yog' surtirishdir. Ko'pincha shamni eritib,uni yara joyga surtilgan. Qichitma xavfini yo'qotish uchun mulla Ro'zi muazzinga attorlikdan bir necha misqol maxzar guli va baqqoldan bir kosa qatiq yoki surma keltrishni buyirdi.Bu narsalar kelganidan so'ng maxzar gulini bir kosa qattiqa qorishtrib menga birdaniga ichirdi va ustidan suv ichib turishimni buyirdi.[1,235.b] Sadriddin Ayniy o'z asarida keltirganidek ,ushbu kasallikka tabiblar va tabobatdan xabari bor kishilar tomonidan og'riqni kamaytirish uchun shifobaxsh o'simliklardan turli damlamalar tayyorlashgan.

To'g'ri, aholining o'ziga to'q qismi yoki yuqori lavozimga ega shaxslar bu kasallikdan qutilish uchun tabiblar ,mutaxasislarga murojat qilishgan, Lekin shuni aytish kerakki,oddiy xalqda bu kasallik davri o'g'r kechgan,davo izlab tabobat egalariga yuzlanish uchun qurbi yetmagan va natijada oylab to'shakda rishta kasalligi bilan kurashishga majbur bo'lgan.Manbalarda keltirilishicha,Buxoro aholining deyarli yarmi bu kasallikka chalinishgan. Albatta bu kasallik juda og'riqli tarzda bo'lgan bo'lsada ,odamlarni o'ldirmagan va shu sababli rishta kasalligi xalq orasida „dardi baxayr''ya'ni „xayrli kasallik'' deyilgan.

Diyorimizga sayohat qilgan A.Vambery ham Buxoroda paytidaligida ushbu kasallikka duch kelgan.Asarida aytadiki,Buxoro havosi juda issiq edi va meni eng tashvishga solgan narsa bu rishta bo'lib , har 10 kishidan 1 tasi kasallikdan aziyat chekishgan.Bu kasallik oyoqda va tananing boshqa qismlarida qichish hissini paydo qilgan. Dastalab hech qanday og'riq kuzatilmagan keyichalik esa dog' paydo bo'lgan. Agar qurti olib tashlash jarayonida uzilib ketsa o'sha joyda yalig'lanish paydo bo'lgan va bir o'ringa 6 ta qurt qaytib paydo bo'lgan.Qurt chiqarilib olingan taqdirdayam odamlar ancha vaqt yotoqda qolishi kerak bo'lgan.Buxoroning iqlimi va suvi juda iflos bo'lganligi ayniqsa ayollarda ko'proq ko'zga tashlangan.

Ayollar bu kabi omillar va turmush tarzi tufayli yuzlariga yaralar chiqqan va juda xunuk ko'rinishiga sabab bo'lgan.[2,219b] Buxoro vohasi Zarafshon daryosidan suv ichgan va bu asosiy suv manbayi hisoblangan lekin suv yetarlicha toza holatda

bo'lmagan. Daryo atrofida istiqomat qilivchi yosh-u qarilar oldin bu suvdan yuvinish uchun va o'zining shaxsiy ehtiyojlari uchun foydalanishgan, undan so'ng sigir, ot va eshak kabi hayvonlarni yuvishgan va ular daryodan suv ham ichgan.[2,220.b]Ular ketganidan keyin barcha zararli bakteriyalar suv tubiga cho'kib qolgan. Shu sababli ham Buxoroda rishta kabi bir qator kasalliklar avj olganligini inkor qilib bo'lmaydi.

Xulosa. Yuqorida takidlanganidek, Buxoro o'lkasida, amirlik davrlarida rishta deb atalmish bedavo kasallik avj olgan edi. Bedavo deyilishiga sabab uni davolash uchun aniq bir dori-darmon yoki giyoh yoq edi. Faqatgina tabiblar tomonidan og'riqni yengillashtirish va qichimani kamaytirish uchun bazi bir usullar qo'llaniladi. Bu kasallikning kelib chiqish sababi hovuzlarning iste'molga yaroqsiz suvlari ekanligi hech kimga sir bo'lmagan. Amirlar tomonida bu muammoni hal qilish uchun biron ijobiy say-harakatlar amalga ham oshirilmagan. O'sha davrda mansab egalari xalqqa suvni qaynatmasdan ichmasligini qattiy buyursa va bemorlarni davolash uchun moddiy ham ma'naviy yordam berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sadriddin Ayniy. Esdaliklar''. T: Toshkent 1966 b.235-237.
2. A.Vamberiy, „Travelsin Central Asia'', NewYork: Harper & Brothers, Publishers, Franklin Squari. Pp.219-220.1865
3. J.Volff „Narrative of a mission to Bokhara, in the years 1843-1845, to ascertain the fate of colonel Stoddart and captain Conolly '' ,1845. New York: Harper & Brothers, 82 Cliff Street. pp.238